



XIZMATLAR SOHASI

2018 yil yanvar-mart


Raqamlar:

- 2018-yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 941,2 mlrd.so`mni tashkil etdi.
 - Moliyaviy xizmatlar o`sish sur`ati 126,3 % ni tashkil qildi.

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi” ni amalga oshirilishi natijasida, 2018-yil yanvar-martida bozor xizmatlari hajmi 941,2 mlrd.so`mni tashkil etib,o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga o`sdi.


Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga moliyaviy xizmatlar bo'yicha 26,3 % ga; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 14,6 % ga; yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha 10,8 % ga; ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha 9,1 % ga erishildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 25,7 %), transport xizmatlari (26,5 %) shu jumladan: avtotransport xizmatlari (16,0 %), moliyaviy xizmatlar (12,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,4 %) hissasiga to`g`ri keldi.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2018 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan umumiy xizmatlarning hajmi 941204,0 mln.so'mni tashkil etgan.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (249575,7 mln.so'm), savdo xizmatlari (242330,9 mln.so'm), moliyaviy xizmatlar (116685,9 mln.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (78681,8 mln.so'm) bo'yicha kuzatildi.


**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mln.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpogiston Respublikasi	941204,0	105,7
Nukus sh.	547353,4	108,2
Amudaryo	32319,6	102,4
Beruniy	32463,9	102,9
Qorao'zak	8514,6	102,7
Kegeyli	10951,2	102,0
Qo'ng'irot	137646,4	101,3
Qanliko'l	8706,4	102,5
Mo'ynoq	3329,8	101,5
Nukus	7737,7	103,5
Taxiatosh	7769,6	102,2
Taxtako'pir	8656,1	101,4
To'rtko'l	41837,4	103,9
Xo'jayli	45348,4	103,8
Chimboy	16191,1	101,9
Shumanay	7860,7	101,1
Ellikkala	24517,6	102,5


Hududlar o'rtasida eng katta hajm Nukus sh. (547353,4 mln.so'm), Qo'ng'irot (137646,4 mln.so'm), Xo'jayli (45348,4 mln.so'm), To'rtko'l (41837,4 mln.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (3329,8 mln.so'm), Nukus t. (7737,7 mln.so'm), Taxiatosh (7769,6 mln.so'm) tumanlarida kuzatilmogda.

2018 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



**2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Eng yuqori o'sish sur'atlarini moliyaviy xizmatlari (126,3 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (118,8 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,6 %) tashkil etgan.

Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past o'sish sur'atlarini shaxsiy xizmatlari (100,0 %); savdo xizmatlari (100,1 %); kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,8 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida xizmat turlari bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari (ming so'mda)



- Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichlari Nukus sh. (1757,2 ming so'm; Qo'nig'iroq (1083,8 ming so'm) ni tashkil etgan.
- Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining eng past ko'rsatkichi Mo'ynoq (107,8 ming so'm), Taxiatosh (107,9 ming so'm) ga to'g'ri kelgan